

Siz mehnat muhofazasini bilasizmi?

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Kasaba uyushmasi hamkorligida Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasining kengashining tashabbusi bilan "Ciz mehnat muhofazasini bilasizmi? " tanlovi institut bosqichi o'tkazildi.

Unda "Xavfsizlik posbonlari" va "Mehnat muhofazasi muhandislari" jamoalari o'zaro ikkita shart bo'yicha bellashishdi. Hakamlar raisi "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasini mudiri T. Haydarov, "Yoshlar ittifoqi BT" yetakchisi A.Berdimurodov, "Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash" fakulteti Kasaba uyushmasi raisi B.Mirnigmatov, Institut psixologi Yu.Nurmetova, Kasaba uyushmasi raisi F.Irisov, "Yoshlar bilan ishlash bo'limi" boshlig'i Z.Haydarovlar hakamlar a'zosi sifatida tanlovni baholashdi. "Hayot faoliyati havfsizligi" kafedrasini dotsenti A.Xojiyev tomonidan tanlov savollari va shaffoflik ta'minlandi. Tadbir yakunida ishtirokchilar faxriy yorliq va diplom, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Nominatsiyalar bo'yicha faol ishtirok etgan talabalardan shakllangan jamoaga shahar bosqichida Agrar davlat universiteti bilan bo'lib o'tadigan tanlovda omad tilab qolamiz.



Kasaba uyushmasi qo'mitasi mutaxassisi S.Xolova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov